

FARG‘ONA VILOYATI TOPONOMIYASIDA GIDROMETEOROLOGIK OMILLAR TA'SIRI

P.Otaqulov, D.Ro'zimatov

(Farg'ona davlat universiteti)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg‘ona viloyati hududidagi toponimik nomlarning shakllanishi va rivojlanishida gidrometeorologik omillarning o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda viloyatning iqlim sharoiti, yillik yog‘in miqdori, shamol rejimi, daryolar va boshqa suv obyektlarining joylashuvi singari tabiiy-geografik xususiyatlar toponimlarga qanday ta’sir ko‘rsatgani o‘rganilgan. Shuningdek, “Qo‘qon”, “Marg‘ilon”, “Chortoq”, “Isfara”, “Sirdaryo” kabi joy nomlarining etimologiyasi, ularning tabiat bilan bog‘liqligi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Maqolada gidrologik va meteorologik omillarning joy nomlarini belgilovchi asosiy faktor sifatida namoyon bo‘lishi, tarixiy va zamonaviy toponimlardagi izlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari Farg‘ona viloyati toponimik landshaftining shakllanishida tabiiy omillarning hal qiluvchi rol o‘ynaganini ko‘rsatadi.

Kalit so’zlar: toponimiya, Farg‘ona viloyati, gidrologiya, meteorologiya, tabiiy omillar.

Аннотация: В данной статье анализируется роль гидрометеорологических факторов в формировании и развитии топонимических названий на территории Ферганской области. В исследовании изучалось, как природно-географические особенности региона, такие как климатические условия, годовое количество осадков, ветровой режим, расположение рек и других водоемов, влияют на топонимы. Также на научной основе анализируется этимология таких топонимов, как “Коканд”, “Маргилан”, “Чортак”, “Исфара”, “Сырдарья”, их связь с природой. В статье раскрыто проявление гидрологических и метеорологических факторов как основных факторов, определяющих топонимы, их следы в исторических и современных топонимах. Результаты исследований свидетельствуют о решающей роли природных факторов в формировании топонимического ландшафта Ферганской области.

Ключевые слова: топонимия, Ферганская область, гидрология, метеорология, природные факторы.

Abstract: This article analyzes the role of hydrometeorological factors in the formation and development of toponymic names in the Ferghana region. The study examined how the natural and geographical features of the region, such as climatic conditions, annual precipitation, wind conditions, location of rivers and other bodies of water, affect place names. The etymology of such toponyms as “Kokand”, “Margilan”, “Chortak”, “Isfara”, “Syrdarya” and their connection with nature are also

analyzed on a scientific basis. The article reveals the manifestation of hydrological and meteorological factors as the main factors determining toponyms, their traces in historical and modern toponyms. The research results indicate the crucial role of natural factors in the formation of the toponymic landscape of the Ferghana region.

Keywords: toponomy, Ferghana region, hydrology, meteorology, natural factors.

Kirish

Toponimiya — muayyan hududdagi joy nomlarini o‘rganadigan fan bo‘lib, u nafaqat lingvistik, balki tarixiy, geografik va madaniy jihatlarni o‘z ichiga oladi. Joy nomlari muayyan mintaqaning tabiatni, iqlimi, yer tuzilishi, suv resurslari va inson faoliyati haqida muhim ma’lumotlarni saqlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Farg‘ona viloyati toponomiyasi o‘ziga xos tabiiy-geografik va tarixiy shart-sharoitlar asosida shakllangan murakkab tizim hisoblanadi.

Farg‘ona vodiysi – O‘zbekistonning eng zich aholiga ega va tabiiy resurslarga boy mintaqalaridan biri bo‘lib, bu hududdagi topominik nomlarning shakllanishida gidrologik va meteorologik omillar muhim rol o‘ynagan. Jumladan, daryo, soy, ariqlar, buloqlar va tog‘ etaklarida joylashgan aholi punktlari ko‘pincha suv resurslari yoki iqlimi xususiyatlar bilan bog‘liq nomlarga ega bo‘lgan. Misol uchun, “Isfayramsov”, “Sirdaryo”, “Chortoq”, “Joydam”, kabi toponimlar bu jarayonning yaqqol dalilidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda Farg‘ona viloyati toponomiyalariga gidrometeorologik omillarning ta’sirini o‘rganish maqsad qilingan. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:Farg‘ona toponomiyasi va gidrometeorologik sharoitlar bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar, tarixiy va geografik asarlar tahlil qilindi. Shu orqali mavzu bo‘yicha nazariy asoslar shakllantirildi. Farg‘ona viloyatidagi toponimlarning joylashuvi va ularning gidrometeorologik sharoitlar bilan bog‘liqligi o‘rganildi. Mahalliy aholi bilan suhbatlar o‘tkazilib, so‘zlab berilgan rivoyatlar va an’anaviy ma’lumotlar yig‘ildi. Hududning xaritalari, meteorologik ma’lumotlar va gidrografik ob’ektlar joylashuvi o‘rganilib, ularning topominik nomlarga ta’siri aniqlanmoqda. Toponimlarning kelib chiqishi, ma’nosi va ularning gidrometeorologik omillar bilan bog‘liqligi tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Adabiyotlar tahlili

Farg‘ona viloyatining toponomiyasi va unga ta’sir qiluvchi gidrometeorologik omillar mavzusida turli olimlarning ilmiy ishlari mavjud. Yu.Ahmadaliyev, P.Otaqulovning “Ekologik toponomlar” asarida Farg‘ona vodisida joylashgan suv obyektlari nomlarini va ularning kelib chiqishini tahlil qiladi. Bu manba gidrometeorologik elementlarning nomlanishga ta’sirini chuqr o‘rganishga imkon beradi. Shuningdek, *Farg‘ona vodiysi: shahar, qishloq va mahalla nomlari nomli*

toponomik lug'atda so'zlarning kelib chiqishi va ular qanday ma'nolarga ega ekanligi haqida ma'lumot beradi. Ayniqsa, Farg'onadagi tog', daryo va boshqa joy nomlarining ildizlari tahlil qilingan. So'nggi yillarda to'plangan meteorologik ma'lumotlar asosida toponimlarning shakllanishida yog'in, shamol kabi omillarning o'rni yoritilgan. Bu maqola Farg'ona hududining zamonaviy iqlim sharoitlariga alohida e'tibor qaratadi.

Tahlil va taqdijot natijalari.

Geografik nomlar juda uzoq davr mobaynida saqlanib qolishi bois tarix uchun juda katta ahamiyatga ega. *Damashq* shaharining shu nom bilan atalganiga uch ming yil bo'ladi. Uni dunyodagi eng keksa nom deb boimaydi. *Buxoro*, *Samarqand*, *Xorazm* kabi toponimlar ham uda qadimiy nomlardan. Shuning uchun ham ularning kelib chiqishi hamon uzil-kesil hal bo'lган emas. Qanchadan-qancha nomlar yozuv paydo bo'lmasdan oldingi davrlardan qolgan. Xalqlar yo'q bo'lib ketgan, tili unutilgan bo'lishi mumkin, lekin geografik joy nomlari saqlanib qolaveradi. O'simlik yoki hayvon yo'q bo'lib ketgan bo'lsa ham, nom yashayveradi.

Toponimning muqim yashashiga asosiy sabab shuki, so'zning toponimga aylanmasdan oldingi ma'nosi to'g'risida kishilar ko'pincha o'ylab ham o'tirmaydilar. Shunday qilib, so'z biron obyektning nomigina bo'lib qoladi.

Bordi-yu bu toponimni sinchiklab tekshirsangiz, hatto mikro-toponimlar deb ataladigan kichik obyekt nomi ham aksari muhim bir tarixiy voqeani o'zida mujassamlashtirgan «makroguvoh» bo'lib chiqishi mumkin.

Gidrometeorologik omillar toponimiyaga ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi: birinchidan, to'g'ridan-to'g'ri tabiat hodisalari (masalan, yomg'ir, qor, sel, shamol) bilan bog'liq nomlar shakllanadi; ikkinchidan, mazkur hodisalar ta'sirida o'zgargan yoki o'zgartirilgan landshaft ob'ektlariga asoslangan nomlar yuzaga keladi. Bunday jarayonlar uzoq yillar davomida xalq og'zaki ijodi va kundalik hayot tajribasi bilan uyg'unlashgan holda shakllanib borgan.

Ushbu maqolada Farg'ona viloyatining ayrim tuman va qishloqlaridagi toponimlarning kelib chiqishi, ularning gidrologik va meteorologik omillar bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy xaritalar, statistik ma'lumotlar va lug'aviy tahlillar orqali ushbu omillarning toponimik tizimdagi o'rniga baho beriladi. Tadqiqot natijalari hududning tabiiy xususiyatlari va xalq madaniyati o'rtasidagi uzviy aloqalarni ochib berishga xizmat qiladi.

Isfayramsov — Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan daryo bo'lib, u Qirg'izistonning janubiy tog'laridan boshlanib, O'zbekistonga oqib kiradi.

“Soy” so'zi o'zbek tilida kichik daryo, irmoq ma'nosini bildiradi. Isfayramsov nomi ehtimol "Isfayram" (shaxs yoki joy nomi) va "soy" so'zlarining qo'shilishidan iborat. Bu nom gidrologik obyekt – ya'ni daryoga bevosita ishora qiladi. Gidrologik obyektlar (daryo, soy, ariqlar) atrofida yashovchi aholining joy nomlarida suv resurslariga urg'u berishi — bu umumiy toponimik qonuniyatdir.

Sirdaryo O‘zbekistonning eng yirik daryolaridan biri bo‘lib, uning havzasi ko‘plab aholi punktlari nomlarining shakllanishiga asos bo‘lgan. “Sir” qadimgi turkiy tilida “daryo” ma’nosini bildirgan, “daryo” esa fors-tojikcha “suv yo‘li” degani. Bu nom ikki tilda takrorlangan bo‘lishiga qaramay, tarixiy ildizi chuqur.

Suv obyektlari nomlari ko‘p hollarda qadimiy davlatlar va etnoslar o‘rtasidagi til o‘zaro ta’sirining mahsulidir. Sirdaryo havzasi o‘tmishda Sug‘diyona deb atalgan bo‘lib, tarixiy-geografik jihatdan muhim yo‘nalish bo‘lgan.

Chortoq — Namangan viloyatining Farg‘ona vodiysi bilan chegaradosh hududidagi shahar.“Chor” — to‘rt, “to‘q” — suv chiqadigan manba yoki quduq degani. “Chortoq” – “to‘rt buloqli joy” degan ma’noni bildiradi. Ko‘p hollarda, chorrahada joylashgan, bir nechta buloq yoki suv chiqadigan joylar “Chortoq” deb atalgan. Bu hududda shifobaxsh buloqlarning mavjudligi ma'lum tarixiy manbalarda ham qayd etilgan.

Tog‘li va tepalik hududlarda kondensatsiya ko‘proq bo‘lib, yog‘inlar intensivroq kuzatiladi.

Suv ob‘yektlari inson hayotida qadim zamonlardan buyon katta iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Ayniqsa «Suv–bu hayot» degan naqlga amal qilingan Markaziy Osiyo kabi arid o‘lkalarda suvning qadrini boshqa biror tabiiy resurs bilan almashtirib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham aholi dastlab suv ob‘yektlari mavjud bo‘lgan hududlarga joylishishga intilganlar. Bu jarayonda uchta bosqichni ajratish toponimik tadqiqotlar uchun ahamiyatli.

Dastlabki bosqichda aholi vodiyning tog‘oldi,adir hududlarda, kichik soy va jilg‘alar bo‘yida joylashgan. Eng qadimgi Xitoy yozma manbalarida Farg‘onada 70 ta «shahar» mavjud bo‘lib, ularda 60 ming oila yoki 300 ming aholi yashaganligi qayd etiladi. Bu shaharlarning aksariyat qismi ham Farg‘ona vodiysining yuqorida to‘rtinchchi va uchinchi balandlik mintaqada joylashib, aholi asosan chorvachilik, lalmikor dehqonchilik va tog‘ bog‘dorchiligi bilan shug‘ullangan. Bularga So‘x, Koson, Chodak, Axsikent, O‘sh, Aravon, Ershi, Quva, O‘zgan, Pop kabi aholi maskanlarini misol qilib keltirish mumkin. Keyinchalik bu aholi maskanlaridan vodiyning quyi qismiga qarab oquvchi soy va daryolar shu aholi maskanlariga tegishli deb hisoblangan va ularning ko‘plari shu shaharlar nomi bilan yuritila boshlagan. So‘x daryosi, Kosonsoy, Chodaksoy, O‘sh soyi (Oqbo‘yra), Aravonsoy, Quvasoy, O‘zgandaryo kabi. Bu jarayonning muhim ijtimoiy –ekologik ahamiyati haqida quyida to‘xtalamiz.

Ikkinci bosqichda, chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi aholining yarim o‘troq hayot kechirish tarziga o‘tishi, ularni vodiyning quyi qismlariga tushib, qishlov uchun o‘zlariga alohida joy hozirlaganliklari kuzatilgan. Bunday aholi maskanlarida aholining qo‘rg‘onlar shaklidagi yashash joylari shakllangan. ularning nomlarida ham ko‘proq «qo‘rg‘on» so‘zi qatnashgan. Bunday «qo‘rg‘onlar» qish oylarida gavjum,

savdo, xunarmandchilik rivojlangan qishloqlar ko‘rinishida bo‘lsa, boshqa joylarda aholining asosiy qismini tog‘li yaylovлага ko‘chib ketishi kuzatilgan. Farg‘ona vodiysida qo‘rg‘on, qo‘rg‘oncha so‘zlari qatnashgan 100 dan ortiq joy nomlari qayd etildi. Bu nomlarning aksariyat qismi uni tashkil etgan urug‘ yoki urug‘ oqsoqolining nomi bilan atalishi S.S.Gubayeva tomonidan ta’kidlangan edi. Bu nomlar topotoponim sifatida suv ob’yektlariga ham berilgan. Bu jarayon suvdan foydalanish, uni adolatli taqsimlash, suvgaga egalik qilish masalalarini hal etishga ko‘maklashgangan, bu haqida 3.1-paragrafda batafsil to‘xtalamiz.

Uchinchi bosqichda aholi suv ob’yektlaridan dehqonchilikda foydalanishga o‘tib, «daryolar sivilizasiya markazlari» yoki oazislarda joylasha boshladilar. Daryolarning konus yoyilmalarida (Qo‘qon, Marg‘ilon), qadimgi o‘zanlardan qazilgan kanal-soylar etagida (Andijon, Namangan, Shaxrixon) yirik shaharlar va ularning atrofida yuzlab kichik aholi maskanlari shakllandi. Bu maskanlarning barchasida suvdan oqiloni, isrof qilmay, ifloslantirmay, «behosiyat» joylarga suv chiqarishga urinmay foydalanishga asoslangan hayot tarzi shakllandi.

Biroq, mustaqillikgacha bo‘lgan davrda, butun mamlakatimizda bo‘lgani kabi Farg‘ona vodiysida ham turli omillar (iqtisodiy, siyosiy) ta’sirida suvdan foydalanishning an’anaviy tizimi izdan chiqdi va bu holat o‘lkamizda eng katta ekologik muammoni keltirib chiqardi. O‘tmishdagি suvdan foydalanish madaniyatini, suv ob’yektlari hamda ulardagи o‘simglik va hayvonot olamini tiklashda toponimik ma’lumotlardan foydalanish amaliy jihatidan foydali bo‘ladi.

Yuqoridagilardan tashqari suv ob’yektlarini tasniflashda o‘zgacha yondashuv ham mavjud, unga ko‘ra suv ob’yektlari paydo bo‘lishiga ko‘ra tabiiy va sun’iy suv ob’yektlariga bo‘linadi. Sun’iy suv ob’yektlarigi qo‘l kuchi yoki texnika yordamida maxsus qurilgan ariq, kanal, quduq, hovuz, zovur, to‘g‘on kirsa, boshqa barcha ob’yektlar tabiiy ob’yektlar hisoblanadi. Ushbu tadqiqot ishining mohiyatidan kelib chiqib, suv obektlarida yuz bergen o‘zgarishlarni hamda undan foydalanish jarayonida ahamiyatli jihatlarni o‘rganish maqsadida N.M.Uluqov hamda N.Oxunov va Yu.Ahmadaliyevlar tomonidan taklif etilgan so‘zning ma’no va mazmuniga asoslanuvchi semantik tasnif asos uchun olindi.

Topogidronimlar aholi maskanlarining nomi suv ob’yektlariga berilishi bilan vujudga keladi. Bunda suv ob’yektlarini nomlash yirik shaharlar nomidan boshlab, to suv ob’yekti kirib borgan eng kichik mahallalar nomiga qadar davom etgan. Masalan, *Andijonsoy*, *Marg‘ilonsoy*, *Namangansoy*, *Qo‘qonsoy*, *Shahrixonsoy*, *Kosonsoylar* shaharlar nomidan, *Aravonsoy*, *Shohimardonsoy*, *Chinobodsoy*, *Chortoqsoy*, *Quvasoy*, *Oltiariqsoy*, *Fayziobodsoy*, *Chimyonsoy*, *Chodaksoy*, *G‘ovasoy*, *Chortoqsoy* nomlari qishloqlar nomidan, *Daxanasoy*, *Chorvoq*, *Ko‘kjar*, *Tuyagum*, *Jo‘ydam* kabilar mahallalar nomidan olingan.

Xulosa

Farg‘ona vodiysi hududidagi joy nomlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tabiiy omillar, xususan suv resurslari va iqlim holatlari bu nomlarning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, suv bilan bog‘liq toponimlar – soy, daryo, buloq va boshqa suv obyektlari atrofida paydo bo‘lgan aholi punktlari nomlari – mintaqaning tarixiy-geografik xususiyatlarini aks ettirib turadi.

Vodiyda uchraydigan “Qo‘qonsoy”, “Chortoqsoy”, “Shohimardonsov” kabi nomlar bevosita suv bilan bog‘liq bo‘lib, bu joylarning yashash uchun qulay, sug‘orish imkoniyatlariga ega hududlar bo‘lganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, “Yozyovon” yoki “Arsif” singari joy nomlari esa meteorologik hodisalar — yog‘ingarchilik, namlik, tabiiy relyef kabi omillar asosida yuzaga kelgan.

Bu kabi nomlar faqat geografik muhitni emas, balki bu muhitda yashagan aholining kundalik hayoti, tabiat bilan o‘zaro aloqasi va til madaniyatini ham o‘zida ifodalaydi. Toponimiyadagi bu holatlar nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnologiya va ekologiya sohalarini o‘zaro bog‘lab turuvchi boy ma’lumot manbai hisoblanadi.

Demak, Farg‘ona vodiysida joy nomlarini shakllantiruvchi omillar orasida gidrometeorologik hodisalarning o‘rni juda muhim. Ushbu toponimlarni o‘rganish orqali nafaqat geografik muhit haqida, balki xalqning hayoti, qadriyatlari va tabiat bilan bo‘lgan munosabati haqida ham qimmatli xulosalar chiqarish mumkin.

Foydalanaligan adabiyot:

1. Ахмадалиев Ю.И., Отакулов П.С. Экологик топонимлар-Фаргона: 2021. 188 бет.
2. Абдуллаев Б. Ўзбекистон геотопонимияси асослари. – Тошкент: Фан, 2019. – 128 б.
3. Ю.Ахмадалиев, П.Отакулов, Ж.Маматисақов. Фарғона водийси: шаҳар, қишлоқ ва маҳалла номлари: Жой номларининг изоҳли луғати.// Т,2017. – 218 б.
4. Рахматуллаев Ш. Ўзбекистондаги гидронимлар луғати. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 200 б.
5. Ҳайитов А. Топонимлар ва уларнинг этимологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1998. – 96 б.
6. Турсунов М. Метеорологик омилларнинг топонимик тизимга таъсири География ва табиий фанлар журнали. – 2022. – №2. – С. 15–20.
7. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: // Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт институти; Наманган давлат университети.–Т.:Фан, 2008. –192 б.
8. Safarov E. *Topografiya va kartografiya, GAT texnologiyalari*. – Toshkent: TDPU, 2020. – 135 b.